



## CHET EL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARIYASI

*DTPI Pedagogika fakulteti  
p.f.f.d (Phd). Sh.K. Maxmudov  
Pedagogika yo'naliishi 2-bosqich talabasi  
Jo'rayev Bahodir Alisher o'g'li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet el psixologiyasida shaxs nazariyasi yuzasidan olimlarning qarashlari haqida mulohaza yuritilgan bo'lib shaxs rivojlanishi yuzasidan ilmiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Individ, xarakter, temperament, shaxs fenomeni, biogenetic omil, bixevoristik omil, mayl, instinkt, kognitivistik omil, personologik omil.

**Kirish.** Shaxs tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Mehnat qila olish ko'nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta - sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyonи, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish jarayonining sub'ektga aylanmoqda. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi, ya'ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o'zaro bog'liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to'xtalish lozim. Shaxsnинг eng muhim xususiyatlari jihatlaridan biri - bu uning individualligidir. Individuallik deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlar va shu kabilalar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir. Shaxs, mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi.



Shaxsnинг hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne'matlaridan to'la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo'lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to'laqonli shaxs bo'lib yetilmasligi mumkin.

**Asosiy qism.** Jahon psixologiyasi fanida shaxsnинг kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozisiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sosiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalistik, bixevoiristik kabilarni kiritish mumkin. quyida sanab o'tilgan nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari tomonidan shaxsnинг rivojlantirishning prinsiplari to'g'risidagi qarashlariga to'xtalib o'tamiz. Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi. Taraqqiyot jarayonining o'zi, dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida qaraladi va talqin qilinadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan. Biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq organning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya yotadi.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga chamalab ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o'zaro o'ren almashinib turadi, degan xulosaga keladilar. Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan, shaxsnинг barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinctlar bilan hartlangan, ayniqsa birinchi navbatda, u jinsiy (seksual) mayliga (libidoga) bog'liqdir. Bunga o'xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi - bu aksil qutbga joylashgan sosiogenetik nazariya hisoblanadi. Sosiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sosializasiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalardan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib,

hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. G'arbiy Yevropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri - bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq) ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o'zgalar bilan munosabat, muloqot o'rnatishida sezilarli iz qoldiradi. Sotsiogenetik yondoshishga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashishi usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqgan xolda tushuntiriladi. Bu nazariyaga ko'ra inson biologik tur sifatida tuzulib, xayotning ijtimoiy shart – sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning xayoti va uning voqeylekka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash va bilimlarni o'zlashtirishning samarasi qo'zg'atuvchining uzlucksiz ravishda mustahkamlanib borishining maxsulidir. Bular E.Torndayk, B.Skinerlarning mulohazasiga asoslanadi.

Yana bir sotsiogenetik nazariyalari namoyondalaridan biri K.Levin tomonidan tavsif qilingan «Fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi psixologiya fani uchun shaxs shakillanishi borasida muhim nazariyalardan hisoblanadi.

Yuqorida taxlili qilingan har – bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o'zgalar uchun yopiq yoki maxdud muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda tushuntiradi, bu o'rinda odam xohlaydimi yoki yo'qmi bundan qatiy nazar mazkur sharoitga moslashmog'i zarur degan aqidaga amal qilinadi. Bizningcha barcha nazariyalarda inson xayotinig ijtimoiy – tarixiy vaziyatlari va obektiv shart – sharoitlari to'liq e'tiborga olinmagan.

Psixologiyada **psixogenetik** yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Mazkur yondashishni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin va bu yo'nalishlar o'z mohiyati, kechishi va mahsuli jihatidan keskin farqlanadi. Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan boshqa) tarkibiy qismlari: emotsiya mayl yordamida shaxsning xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika, deyiladi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha qator nazariyalar mavjud. Masalan, psixodinamika nazariyasini yorqin vakillaridan biri E.Erikson nazariyasiga ko'ra inson umri 8 davrga bo'linadi: E.Shpinger, K.Byuler, A.Maslou va boshqalar personologik nazariyaning vakillari bo'lib, ular yosh davrlarini shaxs "men" xususiyatlarining shakllanishi bosqichlari deb hisoblaydilar. Kognitivistik yo'nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin. Sobiq sovet psixologlari L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich, D.B.Elkonin, A.A.Lyublinskaya, V.A.Krutetskiy, A.V.Petrovskiylar



ham yosh davrlarini o`ziga xos tabaqalash nazariyalarini yaratdilar. Ular orasida D.B.Elkoninning tasnifi alohida o`rin tutib, yetakchi faoliyat nazariyasiga asoslanadi.

D.B.Elkoninning nazariyaga ko`ra har bir yosh davrida biror faoliyat turi inson shaxsi shakllanishida asosiy rol o`ynaydi. Bu yosh davrlari quyidagilar:

Yosh davrlari	Yetakchi faoliyat
1) Go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha	asosiy faoliyat – bevosita emosional muloqot.
2) Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha	asosiy faoliyat – predmetli faoliyat.
3) Maktabgacha davr – 3yoshdan 7 yoshgacha	asosiy faoliyat – rolli o'yinlar.
4) Kichik maktab yoshi davri – 7 yoshdan 10 yoshgacha	asosiy faoliyat – o'qish.
5) O'smirlilik davri – 10-15 yoshgacha	asosiy faoliyat – muloqot.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatlari g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, eshtiyorjlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalgaga oshishini ta'minlovchi tizim o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy sharoiti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma'naviy sifatlar ajratiladi.

4. Mashqlar tizimi. hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

5. Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili psixologiya fanida sistemali yondashuvga oid tadqiqotlarning ko'rsatishiga qaraganda, har qaysi tizimning tavsifi sifatida uning tuzilishi qabul qilinadi. Ko'pgina psixologlarning qarashlarida shaxsning ijtimoiy-psixologik tavsifi qiyofasining tuzilishida yetakchi rol o'ynashi va qayd etishi ta'kidlanadi. Shu jumladan, tadqiqotchi N.I.Reynvaldning fikricha, shaxsning tuzilishi va uning har bir qiyofasi (xislati) uch mezon asosida tashlil qilinishi joiz:

1) orientirovkaning darajasi va anglanganlik xususiyatiga;

2) u yoki bu ehtiyoji holatlarni harakatlantirishning xususiyati hamda tashkiliyligi;

3) paydo bo'lishning jadalligi, jiddiyligi va zo'riqishga, ya'ni insonning emotsiional irodaviy, bilishga oid sifatlari nuqtai nazariga va boshqalar.



N.I.Reynvaldning izohlashicha, faoliyatning reguliyatsiyasida psixik funksiyalarni umumlashgan guruhlashtirish ularning uch o'lchovli (mezonli) tasnifining aql (intellekt), hissiyot (emotsiya) va iroda mohiyati zimmasiga tushishi shaxs tuzilishini temperament, xarakter va qobiliyatlarga, ikkinchi tomondan esa ekstraversiya, introversiya omillariga ajratishga barham beradi. N.I.Reynvaldning ushbu yondashuvi A.R.Luriyaning miya faoliyatining uch blokli roli tasnifiga bevosita mos tushadi, chunonchi, aql (intellekt) ko'p hollarda informatsion blok orqali amalga oshadi, iroda (tashkiliylilik) programmalashtirish bloki bilan, xilma-xil emotsiyal holatlar (hissiyot) yuzaga kelishining negizida "energetik" blok yotadi. Aql, hissiyot, iroda va ularni ro'yobga chiqaruvchi miyaning bloklari, harakatlantiruvchilarni emas, balki o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatining uch lahzasini anglatadi. Xullas, qarashlarning rang-barangligi muammo yechimining har xil variantlari, variantlari, modifikasiyalari, modullari va modellari bir davrning o'zida hukm surishini ta'minlaydi hamda sistemali yondashuv majmuasi yuzaga kelishi uchun puxta negiz, mexanizm va barqaror manba hozirlaydi. shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri bu uning individualligidir, ya'ni yakka holligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmon xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatları va shu kabilalar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xhash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrılganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning mangulikka yo'nalishi bilan izoshlash mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jahon va hamdo'stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-metodologik asosga ega bo'lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenetika shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo'lib, xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni yechishda keng ko'lamda qo'llaniladi. Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonunyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Shaxs o'zini anglashga qodir, ijtimoiy munosabatlarning subyekti, o'zini o'zi anglash imkoniyatiga ega bo'lgan ongli mavjudot sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, insonlar jamoasi, ijtimoiy tarixiy jarayonlarning ta'sirida kamolga yetadi. Olimlar shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tuzish yordami bilan xaspo'shlashi ijobiy izlanish tarzida o'ziga tortadi, lekin unda shaxs "kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir" deb ta'riflanadi.



### Foydalaniman adabiyotlar.

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya darslik. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2021.
2. E.G’oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent- “Universitet”-2002.
- 3 Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent- “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”-2008y.

